

**ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
ASRLARIDA FALSAFIY MASALALARING QO‘YILISHI**

DAVLATOV ASRORJON DILMURAD O‘G‘LI

TDTr.U talabasi.

Ilmiy raxbar: Salimov Baxriddin Lutfullaevich

Annotatsiya: Alisher Navoiyning faoliyat ijtimoiy-siyosiy, badiiy, ilmiy, falsafiy faoliyat edi. U tasavvuf ilmini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shgan. Muhammad Bobur jahon ilmiga, madaniyatiga katta hissa qo‘shgan allomadir. U yirik davlat arbobi, iste’dodli sarkarda, talantli yozuvchi, faylasuf shoir va adib, donishmand tarixchi, zakovatli olim va tarjimondir.

Kalit so‘zlar: Hamsa, Boburnoma, shoir, adib, davlat arbobi, sarkarda.

Abstract: Alisher Navoi's activity was socio-political, artistic, scientific, philosophical activity. He contributed to the development of Sufism. Muhammad Babur is a scholar who made a great contribution to world science and culture. He is a great statesman, a talented general, a talented writer, a philosopher, a poet and a writer, a wise historian, an intelligent scientist and a translator.

Key words: Hamsa, Baburnama, poet, writer, statesman, warlord.

Jahon madaniyati tarixida ulkan iz qoldirgan mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) o‘z davrida falsafa fanini taraqqiy etishida o‘z hissasini qo‘shgan. Uning faoliyati XV asrda O‘rtta Osiyo mintaqasida ko‘zga tashlandi. Bu faoliyat ijtimoiy-siyosiy, badiiy, ilmiy, falsafiy faoliyat edi. Navoiyning ilm-ma’rifat sohasidagi harakati uning juda yoshligidan boshlangan. U tasavvuf ilmini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shgan. Uning falsafasida «Kalom», «Shariat», «Oriflik», «Axloqiyilik», «Siyosat», «Komillik», «Davlat», «Fozil jamiyat», «Muqaddas oila» sohalari mustahkam o‘rin olgan. Navoiy dunyoqarashi ijodi va faoliyati turkiy xalqlarning jahon taraqqiyotidagi o‘rni, falsafasi bilan bog‘lanib ketgan. Navoiy asarlarida odil podshoh, fozil jamiyat to‘g‘risidagi fikrlar Navoiydan oldin o‘tgan allomalar fikrlaridan farq qiladi. Navoiy o‘z falsafasida

butun olam, borliq, koinotni xudo tomonidan yaratilganligini e'tirof etadi. Butun olam jumladan, tabiat va jamiyat Ollohnning namoyon bo'lishi, zuhr etilishidir. Uning bu fikri tasavvuf ta'limotidagi xudo butun mavjudotning, borliqning yaratuvchisi, qolgan barcha narsa va hodisalar jumladan, inson ham uning zarralaridir, degan umumiyligini qoidaga to'la asoslangandir. Ma'lumki, tasavvuf falsafasi qoidasiga binoan inson xudo tomonidan yaratilgan bo'lib, boshqa mahluqotlardan farqli ravishda ilohiy aqlga egadir.

Navoiy o'zining epik asarlari bilan katta muvafaqqiyatlarga erishdi. U 1482 –1485 yillarda o'zining «Xamsa»sini, 1499 yilda esa «Lisonut - tayr» falsafiy dostonini yaratdi. Uning «Lisonut - tayr» asari XV asr taraqqiy parvar, falsafiy fikrlarning badiiy mujassami bo'ldi. Navoiyning «Xamsa» yaratishi o'zbek klassik adabiyoti va uning istiqboli uchun ham katta va mas'uliyatli imtihon bo'ldi.

Ta'kidlaganimizdek, Navoiy dostonlaridan uch xildagi masalalarni e'tirof etish mumkin. Bular: 1. Falsafiy masalalar; 2. Ijtimoiy-siyosiy masalalar; 3. Axloqiy-ta'limiy masalalar.

Navoiy falsafiy masalalar ustida to'xtalar ekan, uning fikrlarida ob'ektiv borliq va ilohiyot, inson va uning o'zligi, din, tasavvuf va boshqalar falsafiy qarashlarning asosini tashkil etadi. Bu masalalar ayniqsa, «Hayratul - abror»da o'z aksini topgan. Navoiyning falsafiy qarashlari rang-barangdir. Unda materialistik elementlar ham mavjud bo'lsa-da, tabiat va jamiyat hodisalarini ilohiyot nuqtai-nazaridan mushohada qiladi. U o'zining insonparvarligi, oqilona mushohadasi va xalqparvarlik tendensiyasi bilan falsafiy qarashlarni saviyasini yuqori ko'taradi. Navoiyning fikricha, ilohiyot, xudo, butun borliqning yagona boshlanishi – substansiyasidir. Dastlab yolg'iz xudoning o'zidan boshqa hech kim va hech narsa bo'lmasigan. Xudo hadsiz kuch-qudrat va imkoniyatlarga ega bo'lmasigan. Natijada xudo o'z kuch-qudrati va imkoniyatlarini namoyish qilib, butun borliqni yaratgan. Shunday qilib Alisher Navoiy ob'ektiv borliqni e'tirof qiladi. Shu bilan birga uni ilohiylashtiradi. U ob'ektiv borliqni inkor etuvchi kishilarga va uni rad qiluvchi dinsizlarga qarshi fikr bildirib borliqni e'tirof etishni tavsiya

etadi. Hatto ularni sevishga, yaxshilashga, insonning baxt-saodati uchun e'zozlashga undaydi.

Navoiy falsafasida inson butun borliqning ko'rki va sharafidir:

Muncha g'aroyibki misol aylading,

Borchani mir'oti jamol aylading.

Ganjing aro naqd farovon edi,

Lek boridin g'araz inson edi.

Koniyu hayvoni, agar xud nabot,

Har biri bir gavhari oliy sifot.

Barchasini garchi latif aylading,

Borchadin insonni sharif aylading—

deb insonni madh etgan. Navoiy dinni e'tirof etish bilan birga uni madh etgan allomalarga hurmat va ehtirom ila qaraydi. Jumladan, tasavvufning yirik namoyondalari Bahovuddin Naqshband va Xo'ja Ahror Valiy kabi allomalarni o'z asarlarida madh etgan. U insonni ezib talovchi, jaholat va nodonlik girdobiga yetaklovchi, jannat va'dalari bilan avrab, do'zax qynoqlari bilan dahshatga soluvchi g'oyalarni qattiq qoralaydi.

Buyuk siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530)dir. Muhammad Bobur jahon ilmiga, madaniyatiga katta hissa qo'shgan allomadir. U yirik davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, talantli yozuvchi, faylasuf shoir va adib, donishmand tarixchi, zakovatli olim va tarjimondir. Boburning asarlarida, yirik she'r va ruboilyarida inson va Vatan faoliyati muqaddas ne'mat sifatida ta'riflanadi. Uning «Boburnoma» asari qomusiy asardir. Unda ziddiyatli, ijtimoiy, tarixiy voqealar bilan birga ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatga, xalq ommasi hayotining turli-tuman sohalariga taalluqli juda qimmatli, falsafiy mulohazalar, hayotiy tafsilotlar o'z aksini topgan. Zahiriddin Muhammad Boburning faoliyatini ikki davrga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi davr 1506 yilgacha bo'lgan Turkiston davridir. Ikkinci davr 1506 yildan keyingi Afg'oniston va Hindiston davridir.

Birinchi davrda u Farg'onada taxtga o'tirib temuriylar orasidagi tarqoqlik holatlarini bartaraf etishga qaratilgan. Ikkinci davrda Bobur nafaqt siyosatchi,

sulola asoschisi, harbiy sarkarda balki juda iqtidorli olim, islomiy ilmlar, shariat, tariqatlar bilimdoni, buyuk so‘z ustasi, shoir va vo‘iz sifatida tanilgan. Boburning ijtimoiy-falsafiy, badiiy-axloqiy, siyosiy va huquqiy, irfoniy, islochchilik qarashlari nihoyatda keng qamrovlidir. Bobur falsafasining bosh yo‘nalishlari insonparvarlik, ilm-ma’rifatparvarlik san’atsevarlik, vatanparvarlikdir.

Bobur o‘z yurtini qattiq e’zozlaydi, qo‘msaydi. Kunlarning birida unga Farg‘onadan qovun keltirganlarida, u achchiq-achchiq yig‘laydi.

Bobur ilm-ma’rifatni qadrlab unga homiylik qiladi. Ilm o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmasligini falsafiy tahlil qiladi:

Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,

O‘rgangali ilm tolibi ilm kerak.

Men tolibi ilmu tolibi ilm yo‘q,

Men bormen ilm tolibi, ilm kerak—

deb insonlarni ilmgaga bo‘lgan havas va ishtiyoqini ta’riflaydi. Uning asarlarida yaxshilik falsafasi asosiy o‘rinni egallaydi. Jumladan, u quyidagicha fikrni bildiradi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,

Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.

Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlig‘ hargiz,

Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidir.

Temuriylar davrida yuqorida keltirilgan mutafakkirlardan tashqari ko‘plab allomalar yetishib chiqdiki, ular O‘rtal Osiyo falsafasini rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Jumladan, Turdi Farog‘iy, Bobrahim Mashrab, Mujrim Obid, Shermuhammad Munis, Muhammad Sharif Gulxaniy, Muhammad Rizo Ogahiy, Mirzo Abdulqodir Bedil va boshqalar fikrimizning yorqin dalilidir. Bu allomalar o‘z davrida o‘zbek xalqining falsafiy qarashlarini dunyo ahliga tanitganlar. Shu sababli ham Amir Temur va temuriylar davri falsafasini o‘rganish bugungi kunning dolzarb muammosidir. Ularning falsafasi vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini madh etganlarki, ulardan o‘rnak olish hozirgi zamon yoshlarining maqsad va vazifalariga mos tushadi. Milliy g‘oyalarni singdirish uchun buyuk ajdodlarimizning faoliyatları misol bo‘la oladi.

REFERENCES

1. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Севинч Акмаловна Тоғаева. ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМ СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ В ФИЛОСОФИИ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 52-55.
2. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Шавкатова Сарвинозхон Лазиз қизи. РАЗЛИЧНЫЕ АСПЕКТЫ ИСТОРИИ ФИЛОСОФИИ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 60-63.
3. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Ўралова Дилноза Орифбай қизи. РОЛЬ ФИЛОСОФИИ В ФОРМИРОВАНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 56-59.
4. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, Абдусатторов, Фатхулла Хайрулла Ўғли, & Ғанибоев, Дилмурод Анваржон Ўғли (2023). ТЕНГЛИК ВА БАХТ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРДА ТУТГАН ЎРНИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (3), 16-21.
5. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, Абдухолиқов, Диёрбек Сайрбек Ўғли, & Комилов, Фарходжон Абдусамин Ўғли. (2023). ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ШАКЛАНТИРУВЧИ ВА ТАРТИБГА СОЛИБ ТУРУВЧИ МУҲИМ ОМИЛЛАР. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (3), 41-46.
6. Салимов , Б. Л., Файзиев , С. Ф., & Қурамбаев , Ж. (2022). ЕВРОПА ОЛИМЛАРИНИНГ АСАРЛАРИДА ИНСОН ВА ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗАРО АЛОҚАДОРЛИГИНИНГ ТАҲЛИЛИ. Journal of Integrated Education and Research, 1(6), 44–50.